



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI REKTORINING
BUYRUG‘I**

2022-yil “3” dekabr

№ 396

Toshkent sh.

**2022-2023-o‘quv yili uchun oliy ta‘limdan keyingi ixtisosliklariga tanlov
o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi VMQ-304-sonli «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori (keyingi o‘rinlarda VMQ-304 deb ataladi), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini (keyingi o‘rinlarda PQ-5117 deb ataladi) ijrosini ta‘minlash maqsadida 2023-yilda Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga tayanch doktorantura va doktoranturada o‘qitish uchun (keyingi o‘rinlarda Doktorantura deb ataladi) qabul kvotalari taqsimot ijrosini sifatli ta‘minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor (F.Azizova) va Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i (Z.Muminova)larga:
 - Doktoranturaga qabulni 2023-yil uchun VMQ-304 va PQ-5117 talablariga qat‘iy rioya qilgan holda amalga oshirishni ta‘minlansin;
 - O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan 2022-yil 15-noyabrdagi №01-10/6536-sonli hamda 2022-yil 10-noyabrdagi №01-10/6415-sonli xatlarida belgilangan talab va tavsiyalar ijro uchun qabul qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Davlat test markazi tomonidan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali ro‘yxatdan o‘tib, PQ-5117da belgilangan talablariga muvofiq milliy sertifikatga ega Doktorantlar mutaxassislik fanlaridan o‘tkaziladigan imtihonga (keyingi o‘rinlarda Imtihon deb ataladi) qatnashishiga ruxsat berilsin;

- Mutaxassislik fanlaridan nafar nomlari ko'rsatilganlar ro'yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda 20-21-dekabr kunlari reja-jadval asosida Imtihon (suhbat) o'tkazilsin;
 - Imtihon qabul qilish komissiyasi (keyingi o'rinlarda Komissiya deb ataladi) tarkibi 2- va 3-ilovaga va Apellyatsiyasi Komissiya tarkibi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlanib, to'liq tarkibda VMQ-304 Nizomiga amal qilgan holda Imtihonlarni shaffof va adolatli o'tishida Komissiya raisi va rais o'rinbosarlari mas'ulligi qayd etilsin;
 - Doktorantura tanlovida ishtirok etuvchilar hujjatlarini, Imtihonda qatnashgan talabgorlarning ballari ketma-ketlikdagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish va Sog'liqni saqlash vazirliklariga o'rnatilgan tartibda taqdim etilsin hamda qabul natijalarini Yagona axborot elektron tizimiga kiritilishi ta'minlansin;
 - Doktorantura Imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tib, o'rnatilgan tartibda qabul kvotalari doirasida qabul qilingan Doktorantlar o'quv jarayonini 2023-yilning 1-yanvaridan boshlanishi ta'minlansin;
2. Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i (A.Musaxonov) va Murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i (D.Achilov)lar Doktorantura Imtihonlari shaffof va adolatli o'tishini tashkillashtirishda to'liq video kuzatuv ostida o'tkazish choralarini ko'rib, tasvirni o'rnatilgan tartibda saqlashni nazoratga olishini ta'minlansin.
3. Mazkur buyruq ijrosining nazorati O'quv ishlari bo'yicha prorektor (Sh.Boymuradov) va Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor (F.Azizova)lar zimmasiga yuklatilsin.

Rektor



(Handwritten signature)

A.K.Shadmanov